

*Ishanjanova Munosibxon Saidahmadovna**Associate professor of Andijan State Institute of foreign languages**Doctor of philosophy in philology (PhD)**Abdullayeva Mumtoza**Andijan state foreign languages instuti student***ABOUT THE CONCEPT OF DEIXIS**

Annotation: in this article, the history and linguistic concept of deixis is interpreted on the basis of the descriptions of scientists.

Keywords: Daisy, pragmatic concept, sign symbols, articulations, pronouns

Annotatsiya: Ushbu maqolada deysisning tarixi va lingvistik tushunchasi olimlar tavsiflari asosida talqin qilinadi.


Kalit so'zlar: deysis, pragmatik tushuncha, ishora belgilar, artikllar, olmoshlar

Deysis tushunchasi tilshunoslikda (yunoncha -“ko'rsatmoq, ko'rsatish”) tarixan yunon tilidagi artikl va olmoshlarni o'rganishga bag'ishlangan masalalar tadqiqi bilan bog'lanadi. Falsafada paydo bo'lgan bu tushuncha antik davrga kelib tilshunoslikda qayta talqin etilgan. Bu davrda deysisga lingvistik tushuncha sifatida birinchi bor stoitsizm maktabi vakili Xrisipp o'z tadqiqotlarida asos solgan. Deysisni lingvistik hodisa sifatidagi qarashlar yunon olimlari Aristotel, Apollonius Diskol tomonidan ham keltirilib, ular deysisni artikllar va ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalanuvchi, predmet bilan bog'liq tushuncha sifatida ta'riflaydilar. Olimlar ishora ma'nosiga ega birliklar olmoshlar bilan bog'liqligini va ular otlarning o'rin bosuvchisi ekanligini ta'kidlaydilar [1.13].

Fransuz tili lug'atlaridan biri “Larousse”da “deysis” terminini “ko'rsatishga, ishora qilishga xizmat qiluvchi birliklar” deb ta'riflanadi. Uning vazifasi va ma'nosi nutqqa bog'liqligi qayd qilinadi[2]. O.Axmanova “Slovar lingvisticheskix terminov” (“Lingvistik terminlar lug'ati”)da deysis (ing.deixis, deictic funstio, fr.deixis, nem.Deixix, Zeigart, Demonstrationsart) ishora ma'noli, ayniqsa, olmoshlarga mansub korrelyatsion xususiyatga ega ko'rsatish vazifasi deya izohlaydi[3]. Lekin bu tushunchaning o'zi va asosiy deyktik kategoriyalar tavsifi hozirga qadar to'liq shakllanmagan va bir yo'sinda qo'llanilmaydi.

Tarixiy qiyosiy tilshunoslik davriga kelib, deysis hodisasini o'rganish tarixida deysisni zamonaviy tushunish lozimligi to'g'risidagi yangi davr boshlandi. Bu davrda deyktik markaz va deyktik birliklar xususiyatlarini o'rganishga qiziqish kuchaydi. Deyktik markaz sifatida Men (so'zlovchi), bu erda (jumla aytilgan makon), va hozir (jumla aytilgan vaqt) kabilar belgilanib, deyktik birliklarning situativlik, egotsentrizm, sub'ektivlik, lahzalilik (mgnovennost) va xayoliylik (efemernost) kabi asosiy xususiyatlari qayd etildi.

XX asrning oxirgi yillariga kelib, tilshunoslikda pragmatika semiotikaning bir yo'nalishi sifatida keng o'rganila boshlandi. Bunda olimlar jumalarning shakli bilan birga mazmuniga ham e'tibor qaratishga ehtiyoj sezidilar. Pragmatika rivojlangunga qadar til birliklarining mazmun tomonini o'rganish olimlar nazaridan chetda g'olib ketgan edi. Pragmatika mazmunining kengayishi deysisning mazmun-mohiyatini ham boyitdi va deysis tushunchasi o'ziga xos tarixiy taraqqiyotga ega bo'ldi. Shunga ko'ra deysisni tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishni quyidagicha davrlashtirish mumkin.

Deyksis tushunchasining talqini

Deyksisning zamonaviy talqini bo'yicha dastlabki qadam Ch.Pirs tadqiqotida kuzatiladi. Olim deyksisni semiotik an'nana, ya'ni tilning belgi xususiyatiga tayanib o'rganadi. U ob'ekt va so'z o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlikka bag'ishlangan izlanishlarida ko'rsatish olmoshlariga to'xtalgan. Bu ishora so'zlarni "indeksallar" deb nomlashni taklif qilgan[4.352]. Ch.Morris fikricha ham, deyksis hodisasi pragmatika tarkibiga kirib, ishora belgilari mazmuni uning qo'llanilish vaziyatiga bog'liq ekanligi qayd qilinadi. Olim ko'rsatish olmoshlarini indeksal belgilar sifatida "deyktik elementlar" deb hisoblaydi va ularga xos denotatni mikromatnsiz aniqlab bo'lmasligini ta'kidlaydi [5.61]. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, nutqiy muloqot matni vaziyatni to'liq qamrab olgandagina deyktik elementlar mazmuni ochib berishi asoslanadi. Deyksisning o'ziga xos xususiyatlari pragmatikada alohida o'rganilishga sabab bo'ladi.

Deyksis pragmatikaning muhim birliklaridan biri hisoblanar ekan, o'zi qo'llanilayotgan kontekst va til tuzilishi munosabatlarini bog'lab turuvchi vosita deyish ham mumkin. Shuningdek, deyktik birliklar til tizimida so'zlarning tejamkorlik qonuniyatiga asoslanib, matnda qaytariqlar bo'lishining oldini oladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Krasnohekova S.V. Mestoimenno'y deyksis v russkoy detskoy rechi: Diss. .. kand. filol. nauk. – Sankt-Peterburg, 2016. – S. 13.
2. Larousse. <https://www.larousse.fr/dictionnaires/francais/188435>
3. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. [https://classes.ru/grammar/174.Akhmanova`source`worddocuments`_8.htm](https://classes.ru/grammar/174.Akhmanova%20source%20worddocuments_8.htm)
4. Pirs Ch.S. Nachala pragmatizma. T. 2. Logicheskie osnovaniya teorii znakov. — SPb.: Laboratoriya metafizicheskix issledovaniy filosofskogo f-ta SPbGU; Aleteyya, 2000. — S.352.
5. Morris Ch.U. Osnovaniya teorii znakov. — Moskva: Delovaya kniga, 2000. — S. 61.
6. Ishanjanova M. Makonni ifodalovchi deyktik birliklarning chog'ishtirma tadqiqi. Filol.fan.b'yyicha falsafa dokt. (PhD) ..dis.avtoref. — Andijon, 2021.